



O‘TKAN KUNLAR” ASARINING O‘QITILISHI

Rahimova Moxiraxon Davronjon qizi

Dang'ara 1-son Politexnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Barcha davrlarda ham kitob mutolasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Bugungi texnika asrida yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish, ayniqsa, adabiyot o'qituvchisidan yuksak mahoratni talab etadi. Ushbu maqolada badiiy asarlarni o'quvchilar bilan hamkorlikda tahlil qilish orqali kitobxonlikni shakllantirishga doir izlanishlar o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *kitobxonlik madaniyati, badiiy asar, g'oya, "Kim aybdor?", "Sud" metodi, "Bulbul" ertagi, "O'tkan kunlar".*

ABSTRACT: *In all eras, special importance was attached to reading books. In the modern technological age, attracting young people to reading requires high skill, especially from a literature teacher. This article presents research on the formation of librarianship through the analysis of literary works in collaboration with students.*

Keywords: *library culture, work of art, idea, "Who is to blame?", "Court" method, fairy tale "Nightingale", "O'tkan kunlar".*

АННОТАЦИЯ: *Во все эпохи особое значение придавалось чтению книг. В современный технологический век привлечение молодежи к чтению требует высокого мастерства, особенно от учителя литературы. В данной статье представлены исследования по формированию библиотечного дела через анализ литературных произведений в сотрудничестве с учащимися.*

Ключевые слова: *библиотечная культура, произведение искусства, идея, «Кто виноват?», метод «Суд», сказка «Соловей», «Уткан кунлар».*

Inson ma'naviyatining yuksalishida, dunyoqarashining kengayishida kitobning o'rni beqiyosdir. U tafakkur hazinasi, insonga sodiq do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi tarbiyachidir. Kitobga mehr qo'ygan insonning qalbi hamisha ezgulikka oshno bo'ladi. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda, ona Vatani va xalqiga



muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda kitobxonlik madaniyatini oshirish vazifasi muhim omillardan sanaladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" (2017-yil 12-yanvar)gi farmoyishi bu boradagi ko'plab islohotlarga keng yo'l ochdi. "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak"– deydi yurtboshimiz.

Darhaqiqat, yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim tizimi xodimlarining o'rni beqiyos. Bugungi davr talabi pedagoglarga katta mas'uliyat yuklamoqda. O'qituvchi dars jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rmas ekan, samaradorlikka erishmaydi. Adabiyot darslarida ham noan'anaviy usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning badiiy adabiyotga muhabbatini, kitobga rag'batini oshirish mumkin. Bunda badiiy asarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish yaxshi samara beradi. H.K. Andersen qalamiga mansub "Bulbul" ertagi mavzusini o'tishda o'qituvchi bir qator uslublar bilan birgalikda "Sud" metodidan foydalanishi mumkin. O'quvchilar ertak matni bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng xohlovchi o'quvchilardan biri imperator roliga tayinlanadi. Qolgan o'quvchilar ikki guruhga ajratilib, o'qlovchilar va qoralovchilar vazifasida imperatorning qilgan ishlarini muhokama qiladilar. O'qituvchi esa jarayonni nazorat qilib, muhokamani quyidagicha yakunlashi mumkin:

Bulbul ilk navo qilganda imperatorning ko'zlaridan yoshlar oqadi, bu esa uning qalbi ezgulikka tashna ekanligini ko'rsatadi. Imperator soxta bulbulga mahliyo bo'lib haqiqiy bulbulni unutgan bo'lsa-da, hukmdorning insoniy dardni tushuna olgan qalbiga hamrohligi tufayli bulbul uni o'limdan qutqaradi. Yozuvchi amaldorlar va yasama bulbul obrazlari orqali soxtalikni, ikkiyuzlamachilikni qoralaydi. Haqiqiy bulbul timsolida ezgulikni, go'zallikni, chin do'stlikni gavdalantira. i9okk,i. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lgan o'quvchi faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilan cheklanib qolmaydi, katta hajmli asarlarni o'qishga kuch



topa oladi. Yuqori sinf o'quvchilari bilan badiiy asar tahlili ustida ishlaganda asarning to'liq matni bilan tanishishga qiziqtirish muhim sanaladi. O'quvchi asar bilan to'liq tanishib chiqqandagina badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bahra oladi, yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglaydi. O'zbek romanchiligining ilk namunalardan biri "O'tkan kunlar" haqida ham shu mulohazalarni bildirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni Abdulla Qodiriyning ushbu asari bilan tanishtirar ekan, mavzuni mustahkamlashda "Kim aybdor?" deb nomlangan muhokama usulini qo'llasa bo'ladi. Bunda o'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini ifodalaydilar va asardan dalillar keltiradilar. Bu usul orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon eta olish, asarning badiiy g'oyasini tushuna olish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Shu o'rinda o'qituvchi asarning asosiy g'oyasi sevishgan ikki qalbnig fojiasinigina yoritish emas, balki xalq baxtsizligi, hukmdorlar ma'rifatsizligi, o'zaro noahillikning oqibatlarlari kabi davr fojialarini ko'rsatish orqali ibratga chorlash vazifasi ekanligini o'quvchilarga tushuntirishi lozim. Shuningdek, romanni o'rganish jarayonida o'quvchilarga obrazlar xarakterini yorituvchi tasvirlarni topish va tahlil qilish vazifasini berish mumkin. Asarda Otabekning odobi, mulohazakorligi ularning xizmatkori Hasanaliga bo'lgan munosabatida ham aks etadi. "Otabek Hasanaliga ish buyurishdan avval "tuzukmisiz ota?" deb ahvol so'raydi.

–Ba'zi ishlarni buyursam...

–Buyuringiz o'g'lim.

–Rahmat ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

–Xo'b, begim...

Shu qisqa savol-javobda odobning oliy cho'qqisi ko'ringan. Yoki, "bu kishi kimingiz bo'ladi?" degan savolga Otabek darrov javob bermaydi. "Hasanalini hujradan uzoqlatib, songra javob berdi: – qulimiz"

Asardagi Otabekning otasi Yusufbek hoji bir so'zli, va'daga vafoni har narsadan ustun ko'ruvchi obraz sifatida gavdalantirilgan. Uning o'g'liga aytgan quyidagi gaplarida ham bu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi: "Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang biravni ishonirib qo'yg'an: bizning oiladan lafzsizlik chiqishi



menga ma'qul ko'rinmaydir". Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi kunda insonlarning ehtiyojlari ortib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri yo'qolmaydi. Yurt tayanchi bo'lgan yoshlarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo'lida olib borilgan ishlar, albatta, o'z samarasini beradi. Zero, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotining asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018.
2. H.K.Andersen.Bulbul, Qor malikasi. – T.: "Ma'naviyat", 2007.
- 3.<https://civil.uz/abdulla-qodiriyning-o-tkan-kunlar-romani-haqida-tohir-maliksharhi/>
4. www.ziyouz.com kutubxonasi